

MILLIY QADRIYATLAR MA'NAVIY MUSTAHKAMLIK ASOSIDIR

Sarvinoz Turdialiyeva

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar va amaliy fanlar fakulteti Milliy g'oya va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Sarvinozkhanumturdialiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotga erishishda milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning shaxs tarbiyasidagi, ijtimoiy ong shakllanishidagi va ma'naviy mustahkamlikni saqlab qolishdagi o'rni tahlil qilinadi. Xususan, oilaviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, diniy bag'rikenglik, tarixiy meros va milliy urf-odatlarining jamiyat hayotiga ijobiy ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy barkamollikka yetaklovchi milliy qadriyatlar tizimi, ularni saqlash va rivojlantirish yo'llari hamda zamonaviy tahdidlar fonida bu qadriyatlarning dolzarbligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, ma'naviy mustahkamlik, shaxs tarbiyasi, axloqiy me'yorlar, diniy bag'rikenglik, tarixiy meros, urf-odatlar, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy ong, yoshlar tarbiyasi.

Hozirgi globallashtirish va raqamli inqilob davrida insoniyat tafakkuriga beqiyos sur'atda ta'sir ko'rsatilmoqda. Aynan shunday vaqtda har bir millat o'zligini yo'qotmaslik, o'ziga xos madaniy yondashuvlarini saqlab qolish uchun ma'naviy tayanchga ehtiyoj sezmoqda. Bu tayanch esa- milliy qadriyatlardir. Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy immuniteti, jamiyatdagi birdamlik va barqarorlikning asosi sanaladi. Aynan shu jihatlari bilan ular bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan "Yangi O'zbekiston- yangi ma'naviyat" siyosatining tub mohiyatini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi o'zbekistonni qurish strategiyasi" PF-60-son Farmonida milliy g'oya va qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.[1] Bu esa milliy qadriyatlar masalasini shunchaki tarixiy yoki etnografik mavzu emas, balki kelajak taraqqiyotining g'oyaviy asosiy omili sifatida ko'rishga undaydi. Shu bois, "Milliy qadriyatlar ma'naviy mustahkamlik asosidir" degan g'oya zamirida yotgan falsafiy, ijtimoiy va tarbiyaviy mazmunni chuqur tahlil qilish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Zero, o'z qadriyatlariga suyangan xalq- hech qachon begonalashmaydi, zaiflashmaydi va yo'ldan adashmaydi.

Milliy qadriyatlar- bu xalq qalbining ildizidir. Ildizsiz daraxt yashay olmagani kabi, qadriyatlarsiz millat ham barqaror bo'la olmaydi. Milliy qadriyatlarimiz ayniqsa yoshlar tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qadriyatlar yoshlar tarbiyasida asosiy rol o'ynab, ularni shaxs sifatida shakllanishida, jamiyatda o'z o'rnini topishida va milliy o'zlikni anglashida katta ahamiyatga ega. Bunga misol sifatida turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, tarix, xalq og'zaki ijodi namunalari, xalq hunarmandchiligi, tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokazolarni keltirishimiz mumkin. "O'zbek xalqining qadimiy "ustoz-shogird" an'anasi yoshlar tarbiyasida axloqiy-etik me'yorlarni singdirishda muhim vositadir. Bu tizim orqali nafaqat kasbiy ko'nikmalar, balki insoniylik tamoyillari ham avloddan avlodga o'tib kelgan." Milliy qadriyatlarimizni anglash, an'analimiz, urf-odatlarimiz, shonli tariximizni o'rganish orqali yosh avlod ong-u shuurida "vatanparvarlik", "vatanni sevis" "vatanidan faxrlanish" kabi tuyg'ular shakllantiriladi. Qadriyatlar jamiyatimizning boyligi, bizning milliy iftixorimiz sanalib, milliy qadriyatlarga xurmat bilan qarash millatning o'ziga xurmat bilan qarashning asosiy bo'g'inidir.[3] Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shib taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Bugungi kunda yurtimizda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Buni allaqachon odat tusiga kirib ulgiran milliy liboslar kiyish kunlari tashkil etilganligida, bundan tashqari aholi o'rtasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va bayramlarni targ'ib qilish, bu an'analimizni kelgusi avlodlarga yetkazishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar orqali ko'rishimiz mumkin. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, "Har qanday millat yoki xalqning ma'naviyatini shakllantirishda uning tarixi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi." [4]

O'zbek millatining urf- odatlari nafaqat oilada, balkim har bir sohada o'z aksini topgan va har bir jamiyat a'zosining hayotida katta ahamiyatga ega. Misol uchun masjid, choyxonalar, bozor, nahorgi osh, milliy bayramlar, Navro'z, bayrami kelin salom va boshqalar kundalik turmushimizning ajralmas qismidir. Biz ularsiz hayotimizni mazmunga boy holda tasavvur qila olmaymiz.[6]

Urf-odat-kishilarning kundalik turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti xarakatlar, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Bu qoida ma'lum ma'noda shaxs ijtimoiylashuvining asosi bo'lib xizmat qiladi. Hech bir shaxs bu kabi ruhiy oziq manbalaridan ayro holda yashay olmaydi.[6] Chunki inson tug'ilgandan to vafot etgunga qadar ma'lum ma'noda shu urf-odat va an'analari ta'sirida yahaydi. Masalan bola tug'ilganda o'tkaziladigan beshikka solish keyinchalik esa xatna (sunnat) qilish muchal to'yi, fотиha, nikoh to'ylari, Payg'ambar yosh,

bundan tashqari turli bayramlar va marosimlar xalq sayllari, gul bayrami, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti, Mavlud...Bularning barchasi kishilar hayotining, kundalik turmushining ajralmas qismiga aylangan.”[6]

O‘zbek xalqining o‘ziga xos tarzda shakllangan, rivojlangan, qadimdan tarkib topgan va hozir ham keng amal qilinadigan an’ana va qadriyatlari ham mavjud bo‘lib, hayotining turli jabhalarini qamrab olgan. Ular asosan, ko‘cha-ko‘yda, muomola madaniyatida, mehmondo‘stlik, yoshi ulug‘larni hurmat qilish, qarindosh-urug‘larga oqibatli bo‘lish kabi jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu kabi odatlar har bir kishiga yoshligidan avvalo oilada yaqin insonlar tomonidan singdiriladi. Shaxsning ijtimoiylashuvida, jamiyat hayotiga singishib borishida bu kabi milliy an’analarning ahamiyati juda katta.[6]

Tarixdan bilamizki, dinlararo nizo va tushunmovchiliklar ko‘plab mojarolar, urushlar va ijtimoiy inqirozlarga sabab bo‘lgan. Shu sababli diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish va uni amaliy hayotga tadbiq etish jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashning asosiy yo‘llaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki milliy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va madaniy merosida o‘z aksini topadi hamda kelajak avlodda insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. “Milliy qadriyatlar — bu nafaqat tarixiy xotira, balki oilada shakllangan axloqiy poydevordir. Har bir farzand yuragida insoniylik, hurmat va adolat o‘tkazuvchisi”. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, texnologik o‘zgarishlar va ommaviy madaniyat oqimlari bu tizimga jiddiy sinov bo‘layotganini ko‘rsatmoqda. Shu bois ularni asrab-avaylash, yoshlar ongiga mos metodlar bilan singdirish va zamonaviy tahdidlar fonida mustahkamlash masalasi hali hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, millatimizning asrlar davomida shakllangan an’analari, urf-odatlari va qadriyatlarisiz shaxs ma’naviyatini to‘liq kamol toptirish mumkin emas. Bu qadriyatlar o‘zining noyob mazmuni va betakror ruhi bilan inson qalbiga chuqur kirib boradi, uning dunyoqarashini boyitadi. Biroq tarixiy sabablarga ko‘ra, ayniqsa sobiq tuzum davrida, milliy qadriyatlarga e’tibor susaygan, ularning haqiqiy mohiyatini buzuvchi noto‘g‘ri talqinlar yuzaga kelgan. Yillar davomida xalqimizning ongiga begona g‘oyalar singdirilib, xalq og‘zaki ijodi, dostonlar, maqollar, rivoyatlar va milliy qo‘shiqlar e’tibordan chetda qolgan. Natijada, ayrim yoshlarimiz bu boy merosning chuqur mazmunini anglash imkonidan mahrum bo‘ldilar. Mustaqillik yillarida esa ushbu jarayonlarga keskin burilish kiritilib, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi: madaniyat markazlari ochildi, ko‘rik-tanlovlar tashkil etildi, yoshlarning milliy an’analari ruhida tarbiyalanishiga sharoit yaratildi. Bu jarayonlar nafaqat ularning axloqiy madaniyatini yuksaltirdi, balki ma’naviy poydevorini ham mustahkamladi. Zero, e’tiqodi

mustahkam, ma'naviyati teran va milliy qadriyatlarga sodiq inson — har bir jamiyat taraqqiyotining eng ishonchli mezonidir. Chunki ildizini yo'qotgan daraxt qanday qurisa, qadriyatlaridan uzilgan millat ham shunday so'nadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. _ - Lex.uz
- [2] Azamova, S. A., Bektoshev, G. S., & Otamurodov, D. O'. (2024). Diniy bag'rikenglik va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati. International Conference: Pedagogical Reforms and Their Solutions.
- [3] Egamov, Y. E. (2025). Yoshlar tarbiyasida milliy an'analar va zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligi: O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda milliy-hududiy an'analardan foydalanish mexanizmlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
- [4] Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
- [5] Inomjonov, I. Sh. (2024). The role of national values in the formation of moral education of the individual in the family. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods.
- [6] Nurmatova, M. (2025). Ma'naviyat shakllanish bosqichlarida urf-odat, an'ana va qadriyatlarning tutgan o'rni. Journal of Universal Science Research.